

Samarqanddan Navoiygacha bo'lgan avtomobil yo'llari ta'mirlandi



Yaqin paytgacha Samarqand shahri orqali Navoiy, Buxoro yoki Urganchga avtomobilda yo'l olgan haydovchi va yo'lovchilar aynan Samarqand va Navoiy shaharlari o'rtasidagi avtomobil yo'lining sifatiga e'tiroz bildirishar, yo'l ahvoli haqli e'tirozlarga sabab bo'lardi. Bugungi kunda aynan shu yo'llar ta'mirlandi.

Gap shundaki, "O'zavtoyol" DAK tizimidagi Samarqand xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini saqlashga ixtisoslashtirilgan ta'mirlash-foydalanish korxonasi tomonidan 2015 yilning 25 aprelidan to 20 mayiga qadar xalqaro ahamiyatdagi M-39 "Almati-Bishkek-Toshkent-Termiz" avtomobil yo'lining 1037-1135 kilometrari oralig'ida, M-37 "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" avtomobil yo'lining 0-147 kilometrilarida va M-37a "Samarkand halka yuli" avtomobil yulining 33-46 kilometrilarida joriy ta'mirlash va saqlash ishlari bajarildi. Bu esa Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Urgut, Samarqand, Oqdaryo, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay va Paxtachi tumanlari hamda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan o'tgan hududlarga to'g'ri keladi.

Bu ishlarga 1,8 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflandi.

"Asosiy maqsadimiz - avtomobil yo'llarining holatidan kelib chikib, yo'lning qatnov qismini yaxshilash, avtomobillar harakatini to'xtovsiz tashkil etish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va yurtdoshlarimizning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan kamchiliklarni bartaraf etish edi, - deydi korxonada direktori Feruz Yoqubov. Buning uchun birinchi navbatda yo'lning qatnov qismini yaxshilab, qoplamaning har xil chiqindilardan tozalash, qish mavsumidan keyin paydo bo'lgan chuqurlarni yamash, temir-beton to'siqlarni yangilash, obodonlashtirish, eskirgan yo'l belgilarini yangisiga almashtirish kabi va boshqa ishlar amalga oshirildi".

Korxonada rahbarining aytishicha, hozirgi kunda yo'l-ta'mirlash ishlari 4R-46 "Samarqand sh.-Juma sh.-Kattaqo'rg'on sh" avtomobil yo'lining 0-49 kilometrari oralig'ida, ya'ni Samarqanddan Kattaqo'rg'onga Juma shahri orqali boriladigan yo'l ham davom ettirilmoqda. Bu yo'lning qatnov qismidagi buzilishlar va chuqurchalar ta'mirlandi. Ayni paytda esa eskirgan yo'l belgilarini almashtirish va yangilarini o'rnatish yo'l elementlarini ohaklash va ranglash ishlari tugatilmoqda.

Darvoqe, ta'mirlash ishlari Samarqandni Shahrisabz bilan bog'laydigan Taxi Qoracha dovonidagi 20 km yo'l ham o'tkazilmoqda. Bugunga qadar dovonda 3000 tonnadan

ortiq asfalt-beton qoplamasi yotqizildi. Ko'chkilar natijasida to'planib qolgan 5000 metr kubdan ortiqrok tog' jinslari olib tashlandi.

Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, yo'lsozlar tomonidan avtomobil yo'llarini ta'mirlash va yangilarini qurish ishlari Respublikamizning barcha hududlarida davom etmoqda.

"O'zavtoyo'l" AK matbuot xizmati